MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SIROJITDINOV ABDULXAMID ALIMOVICH

BOG‘LIQSIZ TASODIFIY MIQDORLAR YIG‘INDILARINING TAQSIMOTLARI UCHUN BA’ZI LIMIT TEOREMALAR

01.01.05– Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika

fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

УДК: 519.21

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SIROJITDINOV ABDULXAMID ALIMOVICH

BOG‘LIQSIZ TASODIFIY MIQDORLAR YIG‘INDILARINING TAQSIMOTLARI UCHUN BA’ZI LIMIT TEOREMALAR

01.01.05– Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika

fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.4.PhD/FM796 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Formanov Shakir Kasimovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Xamdamov Isakjon Mamasaliyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor.
	Mamurov Igamnazar Narbayevich fizika-matematika fanlari falsafa nomzodi,dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Namangan muhandislik-qurilish instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "15" aprel soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+998 71) 227-12-24, faks: (+998 71) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (45 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+998 71) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "1" aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil "1" aprel dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi).

A.Sadullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor, akademik

R.M.Jo'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.f.d.(PhD)

O.Sh.Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda ilmiy va amaliy xususiyatga ega bo‘lgan ayrim matematik modellarni o‘rganish, ko’plab bog’liqsiz tasodifiy miqdorlarning katta sondagi yig’indisini tadqiq qilishga olib keladi. Ma’lumki, Bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar yig’indilari taqsimotlarining normal taqsimotga yaqinlashishini tadqiq qilish va ularni o‘rganish ilmiy tadqiqotlarda yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Ayniqsa, hozirgi vaqtda jahonning aksariyat ilmiy maktablarida bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar yig’indisi uchun Markaziy Limit Teorema (MLT) o’rinli bo’lishini tekshirish hamda MLTda yaqinlashish tezligini baholash masalalari zamonaviy matematikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Birinchi marta A.M.Lyapunov 1901-yilda MLTda yaqinlashish tezligini o’rnatdi, bunda baholash qo’shiluvchilar soni va ularning birinchi momentlari orqali ifodalangan. Bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar yig’indilari taqsimotlarining normal taqsimotga yaqinlashishi masalalari iqtisodiyot, tibbiyot, axborot texnologiyalari va tabiiy fanlarning ko‘plab dolzarb masalalarini hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Jahon amaliyotida limit teoremalarni tadqiq etish borasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ta’kidlash joizki, matematik modellarni qurishda ba’zida tasodifiy sonli omillar bilan shug’ullanishga to’g’ri keladi. Rivojlangan mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot institutlari zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda bunday modellarni tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish borasida yangi yondashuvlar ishlab chiqmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt va katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda bunday modellarning qo‘llanilishi dolzarb ilmiy yutuqlardan biri hisoblanmoqda. Bundan tashqari, bunday jarayonlarni o‘rganish zamonaviy fanda katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, u iqtisodiyot va ijtimoiy jarayonlarning barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Ushbu jarayonlarni tadqiq etish zamonaviy ilmiy yo‘nalishlarda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda muhim nazariy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga ko‘plab amaliy tatbiqlarga ham ega bo’lgan Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika kabi fundamental fanlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” mutaxassisligining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori matematik qat’iylik bilan ilmiy tadqiqotlar olib borish fundamental tadqiqotlarning asosiy vazifasi hisoblanadi[1]. Bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar yig‘indilarining taqsimotlarini oldindan ma’lum bo’lgan limitik taqsimot qonunlariga yaqinlashtirish masalalarini tadqiq qilish nafaqat fanlarning yanada rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega, balki fanning deyarli barcha sohalarida ko‘plab tatbiq etilishiga erishiladi. Natijada, bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar yig’indilarining taqsimotlari approksimatsiyalarini tatqiq qilishda erishiladigan asosiy natijalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar yig’indilarining

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta`lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori

taqsimotlarini o’rganish shubhasiz, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika rivojlanishining hozirgi bosqichidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya ishining mavzusi va tadqiqot ob’ekti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonida, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789 sonli va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708 sonli Qarorlarda, shuningdek, fundamental fanga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarga mos keladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

XX asr o‘rtalarida P. Levi, A.Ya. Xinchin, A.N. Kolmogorov, B.V. Gnedenko, G. Kramer, K.-G. Esseen kabi taniqli matematik olimlarning sa’y-harakatlari natijasida yaratilgan bog’liqsiz tasodifiy miqdorlarni yig‘ish nazariyasi, zamonaviy ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistikaning jadal rivojlanayotgan asosiy yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yo’nalishda muhin natijalar Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika sohasidagi taniqli olimlar V. Feller, G. Bergstrom, A.A. Borovkov, V.M. Zolotarev va boshqalar tomonidan olingan. Keyinchalik bu nazariya mashhur olimlar V.V. Petrov, V.I. Rotar, E.L. Presman hamda Sh.K. Formanov, Sh.A. Mirahmedov va boshqa o‘zbek matematiklarining ilmiy izlanishlari natijasida rivojlantirildi. Ehtimollar nazariyasi rivojlanishining hozirgi bosqichida bog’liqsiz tasodifiy miqdorlarni yig’ish nazariyasi mustaqil yo’nalish hisoblanib, uning natijalari matematik statistika, moliyaviy va sug’urta matematikasi, optimal qaror chiqarish nazariyasi va matematikaning boshqa sohalarida yanada ko’proq foydalanilmoqda..

2019 yilda E.L. Presman va Sh.K. Formanovlar tomonidan noklassik tipdagi, qo’shiluvchilarning cheksiz kichiklik sharti bajarilmagan holda MLT uchun natijalar olingan. Ular tomonidan Lindeberg shart ε ga bog’liq bo’lmagan (Rotarning o’zgartirilgan shartida) holda Rotar xarakteristikasi uchun baho keltirilgan. Rotar tomonidan Lindeberg xarakteristikasining analogi bo’lgan xarakteristikasi kiritilgan bo’lib, qo’shiluvchilarning dispersiyalari chekli bo’lgan holda bu xarakteristikaning nolga intilishi markaziy limit teorema o’rinli bo’lishi uchun zaruriy va yetarli shart hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti “Stoxastik analiz” laboratoriyasi va O’zbekiston Milliy Universitetining “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” kafedrasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi quyidagilardan iborat:

bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar yig’indisining taqsimoti va standart normal taqsimot orasidagi farqni baholash uchun Lindeberg va Rotar sonli xarakteristikalarining aniq bahosini qurish va $2+\delta$ $\left(0<\delta<1\right)$ tartibli moment mavjud bo’lganda Berri-Esseen tengsizligini analogini isbotlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat**:**

bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar yig’indisi uchun Lindeberg-Feller tipidagi markaziy limit teoremasini isbotlash;

moment shartlari mavjud bo’lmaganda markaziy limit teoremada yaqinlashish tezligini o’rnatish;

bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar seriyasi uchun markaziy limit teorema o’rinli bo’lishi uchun yangi umumlashgan Rotar sonli xarakteristikasini keltirish;

bog’liqsiz tasodifiy vektorlar yig’indisi uchun asimptotik baholarni olish;

Tadqiqotning ob’yekti bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar yig’indisi va tasodiy vektorlar yig’indisi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Taqsimot funksiya, xarakteristik funksiya, Rotar sonli xarakteristikasi va Ibragimov-Osipov sonli xarakteristikasi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ehtimollar nazariyasining metodlari, hamda tasodifiy miqdorlarning kesimlari kabi analitik metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar yig'indisi uchun Lindeberg-Feller tipidagi markaziy limit teorema isbotlangan;

moment shartlari mavjud bo’lmagandagi Feller teoremasi uchun markaziy limit teoremada yaqinlashish tezligi bahosi olingan;

bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar seriyasi uchun markaziy limit teorema o’rinli bo’lishi uchun hech qanday parametrga bog’liq bo’lmagan umumlashgan Rotar sonli xarakteristikasi keltirilgan;

bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar yig’indisi uchun olingan asimptotik baholarni bog’liqsiz tasodifiy vektorlar yig’indisi uchun umumlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Dissertatsiyada markaziy limit teoremadagi olingan yaqinlashish tezligi iqtisodiy jarayonlarning matematik modelini tuzishda ishlatish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bog’liqsiz tasodifiy miqdorlarni yig’ish nazariyasining zamonaviy metodlaridan foydalanish orqali matematik mulohazalar va isbotlarning qat’iyligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ushbu ishda olingan ilmiy natijalardan zamonaviy Ehtimollar nazariyasi va matematik statistikada limit teoremalarni tadqiq qilishda foydalanishdan iborat.

Dissertatsiya ishida olingan natijalarning amaliy ahamiyati, ilmiy natijalarni iqtisodiy masalalarda va aktuar matematikada jarayonlar matematik modelini o‘rganishda tatbiq etilishi mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot ishlarning joriy qilinishi. Bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar yig’indilarining taqsimotlari uchun ba’zi limit teoremalarni tadqiq qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Markaziy limit teoramada olingan yaqinlashish tezligidan 2017-2020-yillarga mo‘ljallangan “O‘lchovli funksiyalar sinfida indekslangan integral empirik prosesslarning asimptotik xossalarini tadqiq etish” mavzusidagi №OT-Ф4-40-sonli loyihada foydalanilgan (Mirzo Ulug’bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2024-yil 27-iyuldagi 04/11-5900-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Indekslangan integral emperik jarayonlarning siljimagan va asosliligini isbotlash imkonini bergan;

Lindeberg-Feller tipidagi MLTini isbotlash metodidan 2017-2020-yillarga mo‘ljallangan “Ikkinchi va yuqori tartibli aralash tipdagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning tadqiqi” mavzusidagi №OT-Ф4-88-sonli loyihada aralash tipdagi tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalarni yechishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti, 2024-yil 26-iyuldagi 2/296-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu natijaning qo‘llanilishi ikkinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalarining yechimi yagona ekanligini isbotlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari O’zbekiston Milliy Universiteti universiteti “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” bo’yicha shahar seminarida, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” ilmiy seminarida muhokama qilindi. Bundan tashqari, ushbu natijalar 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 2 ta Xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan 7 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan nashrlarda, shulardan 2 tasi xorijiy va 5 tasi Respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 100 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar yig’indisi uchun markaziy limit teorema va uning kuchsiz moment shartida turli umumlashtirishlari” deb nomlanib u to’rta paragrafdan iborat va bog’liqsiz tasodifiy miqdorlarning taqsimotini normal taqsimot qonuniga yaqinlashish masalalariga bag‘ishlangan. Markaziy limit teorema (MLT) ehtimollar nazariyasida shubhasiz muhim o’rinni egallaydi. Va hozirda uni qo‘llash mumkin bo‘lmagan ilm sohasini topish juda qiyin. MLT – ko’p sonli tasodifiy miqdorlar(t.m.) yig’indisining taqsimoti normal taqsimotga yaqinlashishini ifodalaydigan teorema sinfidir. Ushbu turdagi natijalar birinchi marta Muavr va Laplas tomonidan Bernulli sxema seriyasi uchun olingan, umumiy holda t.m.lar yig’indilari uchun - Chebishev, Lyapunov, Lindeberg, Feller, Rotar va boshqalar natijalar olishgan.

$X_1, X_2, \ldots$ – bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar (t.m.) ketma-ketligi bo’lsin barcha n va shunday $\delta > 0$ son uchun $EX_n = 0,\ E\left|X_n\right|^{2+\delta} < \infty$ bo’lsin. Quyidagi belgilashlarni kiritamiz

$$B_n^2 = \sum_{k=1}^{n} EX_k^2, \quad S_n = \sum_{k=1}^{n} X_k, \quad F_n(x) = P\left(S_n < xB_n\right),$$

$$L_n = B^{-2-\delta} \sum_{k=1}^{n} E\left|X_k\right|^{2+\delta}, \quad \Phi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{x} e^{-\frac{t^2}{2}} dt.$$

$X_1, X_2, \ldots$ bog’liqsiz tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi uchun (MLT) o’rinli bo’ladi deymiz agar quyidagi asimptotik munosabat o’rinli bo’lsa

$$\sup_x \left|F_n(x) - \Phi(x)\right| \to 0 \quad n \to \infty,$$

bu yerda

$$\Phi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{x} e^{-u^2/2} du$$

$(0,1)$ parametrli normal taqsimot.

Endi har bir seriyada bog’liqsiz bo’lgan tasodifiy miqdorlar seriyasini qaraylik

$$X_{1n}, \ldots, X_{nn}, \ldots, \ n = 1, 2, \ldots \qquad (3)$$

bu yerda $X_{n,j}$ tasodifiy miqdor $n$ga bog’liq bo’lishi mumkin.

Umumiylikka zarar keltirmay quyidagi belgilashni amalga oshiramiz

$$S_n = \sum_{k=1}^{n} X_{n,j}\ .\ \sigma_{n,j}^2 = EX_{n,j}^2 < \infty\ ,\ j = 1, 2, \ldots, n\ ,\ n \geq 1$$

$$EX_{n,j}=0\ ,\ j=1,2...,n\ ,\ \sum_{k=1}^{n}\sigma_{n,j}^{2}=1 \tag{4}$$

Markaziy limit teorema o'rinli bo'lishini tekshirishda quyidagi xarakteristika juda muhim rol o'ynaydi

$$L_n(\varepsilon)=\sum_{j=1}^{n}\int_{|x|>\varepsilon}x^2\,dF_{n,j}(x)\ ,$$

bu yerda ε ixtiyoriy musbat son, $F_{n,j}(x)=P(X_{n,j}<x)$ $X_{n,j}$ ning taqsimot funksiyasi.

Quyidagi shart

$$L_n(\varepsilon)\to 0,\ n\to\infty,\ \forall\varepsilon>0 \tag{L}$$

Lindeberg sharti deyiladi. Xususan, (3) tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi uchun Lindeberg sharti bajarilishidan quyidagi dispersiyalarning tekis cheksiz kichiklik sharti kelib chiqadi:

$$\max_{1\le j\le n}\sigma_{n,j}^{2}\to 0,\ n\to\infty \tag{F}$$

(F) shart Feller sharti ham deb nomlanadi o'z navbatida Feller shartidan quyidagi t.m.lar ketma-ketligi tekis cheksiz(asimptotik) kichiklik sharti kelib chiqadi

$$\max_{1\le n\le j}P(|X_{n,j}|>\varepsilon)\to 0,\ \forall\varepsilon>0,\ n\to\infty \tag{U}$$

Quyidagi Lindeberg va Lindeberg-Feller teoremalari o'rinli:

Теорема 1. (3) –bog'liqsiz t.m. ketma-ketligi Lindeberg (L) sharti o'rinli bo'lsa, u holda bu ketma-ketlik markaziy limit teoremani qanoatlantiradi.

Теорема 2. (3)-bog'liqsiz t.m. ketma-ketligi Feller shartini bajarib (MLT) o'rinli bo'lishi uchun Lindeberg sharti bajarilishi zarur va yetarlidir.

V.I.Rotar (3) bog'liqsiz (t.m.) ketma-ketligi uchun quyidagi sonli xarakteristikani kiritadi:

$$R_n(\varepsilon)=\sum_{j=1}^{n}\int_{|x|>\varepsilon}|x|\left|F_{n,j}(x)-\Phi_{n,j}(x)\right|dx$$

Bu yerda $0<\varepsilon<\infty$. $F_{n,j}(x)$ taqsimot funksiya $X_{n,j}$ t.m.ning taqsimot funksiyasi, $\Phi_{n,j}(x)$ dispersiyasi $\sigma_{n,j}^2$ bo'lgan normal taqsimlangan t.m. taqsimot funksiyasi (ya'ni $\Phi_{n,j}(x)=\Phi(\frac{x}{\sigma_{n,j}})$).

Quyidagi shart

$$R_n(\varepsilon)\to 0,\ \ \forall\varepsilon>0,\ \ n\to\infty \tag{R}$$

Rotar sharti deyiladi.

Теорема 4. Bog'liqsiz t.m. ketma-ketligi MLTini qanoatlantirishi uchun Rotar shartini bajarishi zarur va yetarlidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Lindeberg-Feller tipidagi limit teoremasining umumlashmasi" deb nomlangan bo'lib u 5 ta paragrafdan iboratdir. Dissertatsiyaning ushbu bobida MLT da ishlatiladigan sonli xarakteristikalar tahliliga hamda uning turli xil isboti tadqiq qilinadi.

[37] ishda, Ibragimov-Osipov xarakteristikasi nolga intilishi Lindeberg sharti bajarilishi bilan ekvivalentligi isbotlangan. Quyida Ibragimov-Osipov xarakteristikasi keltirib o'tamiz.

$$\psi_n = \sum_{j=1}^{n} \int_{|x|\geq 1} x^2 dF_{nj}(x) + \left| \sum_{j=1}^{n} \int_{|x|\leq 1} x^3 dF_{nj}(x) \right| + \sum_{j=1}^{n} \int_{|x|\leq 1} x^4 dF_{nj}(x).$$

Bizda esa quyidagicha

$$M_n(\alpha) = \sum_{j=1}^{n} \int_{|x|\leq 1} |x|^{2+\alpha} dF_{nj}(x) + \sum_{j=1}^{n} \int_{|x|>1} x^2 dF_{nj}(x) = m_n(\alpha) + L_n, \ \alpha > 0.$$

$n \to \infty$ da $M_n(\alpha)$ ning asimptotik xossasini keltiramiz.

Lemma 1. Agar $n \to \infty$ da shunday $\alpha = \alpha_0 > 0$ uchun

$$m_n(\alpha_0) = \sum_{j=1}^{n} \int_{|x|\leq 1} |x|^{2+\alpha_0} dF_{nj}(x) \to 0,$$

bo'lsa, u holda ihtiyoriy $\alpha > 0$ uchun $m_n(\alpha) \to 0$ asimptotik munosabat o'rinli bo'ladi.

Endi ushbu bobning asosiy natijalaridan birini keltiramiz.

Теорема 5. Shunday $\alpha = \alpha_0 > 0$ uchun

$$M_n(\alpha_0) = m_n(\alpha_0) + L_n \to 0, \ n \to \infty \tag{M}$$

o'rinli bo'lsin. U holda ihtiyoriy α uchun quyidagi implikatsiya o'rinli bo'ladi

$$\{M_n(\alpha) \to 0, \ n \to \infty\} \Leftrightarrow \{L_n(\varepsilon) \to 0, \ \forall \varepsilon > 0, \ n \to \infty\}.$$

5-teoremadan Lindeberg-Feller teoremasini kelib chiqishini ko'rsatish mumkin. 2-teoremadagi *(L)* shartning o'rniga *(M)* shartdan foydalanib quyidagi teoremani keltirib o'tamiz.

Теорема 6. $\{X_{nj},\ 1 \le j \le n\}$ bog'liqsiz t.m. ketma-ketligi Feller shartini bajarib (MLT) o'rinli bo'lishi uchun *(M)* shartni bajarilishi zarur va yetarlidir.

Keling endi Fellerning moment shartlari mavjud bo'lmagandagi teoremasini keltirib o'tamiz.

Теорема 7. Ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun

$$B_1, B_2, \dots B_n, \dots,$$

musbat sonlari ketma-ketligi mavjud bo'lib, quyidagi shartlarni qanoatlantirsa

$$\lim_{n\to\infty}\sum_{j=1}^{n}\int_{|x|>\varepsilon B_n} dF_j(x) = 0, \tag{6}$$

$$\lim_{n\to\infty}\frac{1}{B_n}\sum_{j=1}^{n}\int_{|x|\le\varepsilon B_n} x dF_j(x) = 0, \tag{7}$$

$$\lim_{n\to\infty}\frac{1}{B_n^2}\sum_{j=1}^{n}\left\{\int_{|x|\le\varepsilon B_n} x^2 dF_j(x) - \left(\int_{|x|\le\varepsilon B_n} x dF_j(x)\right)^2\right\} = 1 \tag{8}$$

u holda MLT o'rinli bo'ladi.

To'g'ri chiziqda quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi nomanfiy chegaralangan B sinf funksiyalarini aniqlaymiz

Ihtiyoriy $\delta > 0$ uchun $\lim\limits_{x\to 0} b(x) = 0,\ m_b(\delta) = \inf\limits_{|x|>\delta} b(x) > 0$.

Quyidagi sonli xarakteristika

$$R_n^b = \sum_{j=1}^{n}\int_{-\infty}^{\infty} |x| b(x) \left|F_{n,j}(x) - \Phi_{n,j}(x)\right| dx \tag{9}$$

umumlashgan Rotar sonli xarakteristikasi deb nomlanadi.

$$R_n^b = \sum_{j=1}^{n}\int_{-\infty}^{\infty} |x| b(x) \left|F_{n,j}(x) - \Phi_{n,j}\right| d(x) \to 0 \tag{10}$$

shart esa umumlashgan Rotar sharti deyiladi.

Agar *b(x)* funksiyani quyidagicha tanlab olsak

$$b(\bullet) = b_0(x) = \begin{cases} 0, & \text{при } |x| \le \varepsilon, \\ 1, & \text{при } |x| > \varepsilon. \end{cases}$$

U holda (9) formula Rotar sonli xarakteristikasiga aylanadi

$$R_n(\varepsilon) = \sum_{k=1}^{n} \int\limits_{|x|>\varepsilon} |x| \left| F_{n,j}(x) - \Phi_{n,j}(x) \right| dx \,.$$

Теорема 8. Quyidagi 3 ta shart ekvivalent:

1) Rotar shartining bajarilishi;

2) shunday $b(\cdot) \in B$ uchun $\lim\limits_{n\to\infty} R_n^b = 0$

3) ihtiyoriy $b(\cdot) \in B$ uchun $\lim\limits_{n\to\infty} R_n^b = 0$ bo'ladi.

Теорема 9. $\{X_{n,1}, \ldots X_{n,n},\ n = 1, 2, \ldots\}$ bog'liqsiz t.m ketma-ketligi MLTni qanoatlantirishi uchun umumlashgan Rotar sharti bajarilishi zarur va yetarlidir.

Dissertatsiyaning 3-bobi «Bog'liqsiz tasodifiy miqdorlar yig'indilarining asimptotik baholari» deb nomlanib u to'rta paragrafdan iborat. Ushbu bobda MLTda mos keladigan asimptotik yoyilma bilan bog'liqsiz tasodifiy miqdorlar yig'indilarining yaqinlashish tezligining baholari keltirilgan.

Keling endi Berrining moment shartlari mavjud bo'lmagandagi MLTdagi olgan yaqinlashish tezligi bahosini keltirimiz.

Теорема 10. $$\beta_n = \frac{1}{q} \sum_{j=1}^{n} \left| \int\limits_{|x|\le\varepsilon q} x dF_j(x) \right|, \ \gamma_n = 1 - \frac{1}{q^2} \sum_{j=1}^{n} \int\limits_{|x|\le\varepsilon q} x^2 dF_j(x)$$

bo'lsin.

Agar $\beta_n^2 + |\gamma_n| < 1$ bo'lsa, U holda quyidagi munosabat o'rinli

$$\sup_x \left| \overline{F_n}(x) - \Phi(x) \right| \le \frac{C(\varepsilon + \beta_n)}{\sqrt{1 - \beta_n^2 - |\gamma_n|}} + \alpha_n + \frac{\beta_n}{\sqrt{2\pi}} + \frac{1}{\sqrt{2\pi e}} \ln \frac{1}{\sqrt{1 - \beta_n^2 - |\gamma_n|}} \,.$$

Bu yerda $C-$doimiy son.

Bu natijani umumlashtirish uchun quyidagi belgilashlarni amalga oshiramiz (ε va q – ihtiyoriy musbat son).

$$\overline{F_n}(x)=P\left(\frac{1}{q}\sum_{j=1}^{n}X_j<x\right),$$

$$\alpha_n=\sum_{j=1}^{n}\int\limits_{|x|>\varepsilon q}dF_j(x), \tag{11}$$

$$\beta_n=\frac{1}{q}\sum_{j=1}^{n}\int\limits_{|x|\le\varepsilon q}xdF_j(x), \tag{12}$$

$$\gamma_n=1-\frac{1}{q^2}\sum_{j=1}^{n}\left\{\int\limits_{|x|\le\varepsilon q}x^2dF_j(x)-\left(\int\limits_{|x|\le\varepsilon q}xdF_j(x)\right)^2\right\}. \tag{13}$$

Теорема 11. $X_1,...,X_n$ - bog'liqsiz t.m. ketma-ketligi bo'lsin, n – ihtiyoriy natural son bo'lsin. U holda

$$\sup_x\left|\overline{F_n}(x)-\Phi(x)\right|\le\frac{C}{q}+\alpha_n+\sqrt{\frac{2}{\pi}}|\beta_n|+\frac{4}{3}|\gamma_n|, \tag{14}$$

bo'ladi.

Теорема 12. (11)-(13) shartlar o'rinli bo'lsin va quyidagi shartni qanoatlantiruvchi shunday $h<1$mavjud bo'lsin

$$\gamma_n\le h. \tag{15}$$

U holda faqat $h$ga bog'liq shunday $A_n>0$, C_n va $H>0$ doimiy sonlar mavjud bo'lsin, quyidagi munosabat o'rinli

$$\sup_x\left|P\left(\frac{1}{A_n}\sum_{j=1}^{n}X_j-C_n<x\right)-\Phi(x)\right|\le H\varepsilon+\alpha_n. \tag{15}$$

Endi dissertatsiyaning ohirgi natijalardan birini keltirib o'tamiz ya'ni Rozenning quyidagi ishini umumlashtirganmiz, solishtirish uchun avval Rozenning ishini keltiramiz.

$X_1,X_2,...,X_n...$ umumiy xosmas taqsimoti $F(x)$ bo'lgan bog'liqsiz tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi bo'lsin. F_n-quyidagi yig'indining taqsimot funksiyasi bo'lsin

$$S_n=X_1+X_2+...+X_n.$$

I_n —xo'qdagi interval, $l(I_n)$—esa interval uzunligi. C- I_n va n bog'liq bo'lmagan doimiy son.

Теорема 13.

(a) Agar $l(I_n) \le n^p,\ 0 < p < \dfrac{1}{2}$, bo'lsa , u holda

$$P\left(S_n \in I_n\right) \le C \Big/ n^{\frac{1}{2}-p} \text{ bo'ladi.}$$

(b) Agar $l(I_n) \le \varepsilon\sqrt{n}$, $\varepsilon > 0$ bo'lsa, u holda

$$P\left(S_n \in I_n\right) \le \varepsilon\left(C + \xi\left(\varepsilon, n\right)\right),$$

bo'ladi, bu yerda ihtiyotiy $\varepsilon > 0$ son uchun $\lim\limits_{n\to\infty} \xi\left(\varepsilon, n\right) = 0$;

(c) Agar $l(I_n) \le M$ bo'lsa, u holda

$$P\left(S_n \in I_n\right) \le \frac{C}{n^{\frac{1}{2}}} \text{ bo'ladi.}$$

(d) $\max\limits_{a} P\left(S_n = a\right) \le C \big/ \sqrt{n}$.

Endi dissertatsiyaning so'ngi natijasini keltiraman, $X_1, X_2, ..., X_n...$ – bog'liqsiz s - o'lchamli P umumiy ehtimollik funksiyasi bilan aniqlangan tasodifiy vektorlar bo'lsin, $\|x\| = \max\left(|x_1|, ..., |x_s|\right)$ - $x = \left(x_1, x_2, ..., x_s\right) \in R^s$ vektorning normasi.

Quyidagi belgilashlarni amalga oshiramiz

$$S_n = X_1 + ... + X_n$$

$$a_i = \int\limits_{|x| \le N} P\left(dx\right), \qquad a\left(a_1, ... a_s\right),$$

$$m = \int\limits_{\|x-a\| \le N} P\left(dx\right), \qquad Q\left(t\right) = \int\limits_{\|x-a\| \le N} \left(t, x-a\right)^2 P\left(dx\right)$$

Bu yerda N – qandaydir musbat son.

Теорема 14. I_n, r_n radiusli n-o'lchamli shar bo'lsin, bundan tashqari chekli $N > 0$ uchun $m > 0$ va $Q\left(t\right)$ musbat aniqlangan kvadrat forma bo'lsin.

(a) Agar $r_n \le n^{\alpha}$ $\left(0 < \alpha < \dfrac{1}{2}\right)$ bo'lsa, U holda

$$P\left(S_n \in I_n\right) \le \frac{C}{n^{s\left(\frac{1}{2}-a\right)}} \text{ bo'ladi.}$$

Bu yerda C -n ga bo'liq bo'lmagan doimoy son.

(b) Agar $r_n \le \varepsilon\sqrt{n}$ bo'lsa, U holda

$$P(S_n \in I_n) \le \varepsilon^s \left(C + \eta(\varepsilon, n)\right) \text{ bo'ladi.}$$

Bu yerda ihtiyoriy $\varepsilon > 0$ da $\lim\limits_{n\to\infty} \eta(\varepsilon, n) = 0$;

(c) Agar $r_n \le C$ bo'lsa, U holda

$$P(S_n \in I_n) \le \frac{C}{n^{s/2}} \text{ bo'ladi.}$$

(d) $\max\limits_{b} P(S_n = b) \le \dfrac{C}{n^{s/2}}$.

Xulosa

Umuman olganda, dissertatsiyadan olingan natijalar dissertatsiya ishining maqsadiga erishilganligi haqida gapirishga imkon beradi. Barcha asosiy natijalar yangi va birgalikda tasodifiy miqdorlarning qo'shish nazariyasiga ma'lum bir xissa qo'shadi. Dissertatsiya ishi tasodifiy miqdorlarning qo'shish nazariyasiga oid ayrim masalarni yechishga bag'ishlangan. Tadqiqot ishining asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Bog'liqsiz tasodifiy miqdorlar yig'indisining taqsimoti uchun Lindeberg-Feller tipidagi limit teorema o'rinli bo'lishi uchun Ibragimov-Osipov sonli xarakteristikasining 0 ga intilishi zaruriy va yetarli shart ekanligi isbotlangan;
2. Fellerning moment sharti mavjud bo'lmagan holdagi markaziy limit teoremasining isboti keltirilgan;
3. Bog'liqsiz tasodifiy miqdorlar seriyasida MLT ning bajarilishi uchun umumlashgan Rotar sharti yetarli va zaruriy shart ekanligi isbot etilgan;
4. Kasr $2+\delta$ $(0<\delta<1)$ tartibli moment mavjud bo'lganda MLT da qoldiq had uchun Berri-Esseen tengsizligi isbotlangan;
5. Qo'shiluvchi tasodifiy miqdorlar uchun momentlar mavjud bo'lmagan holda MLTda yaqinlashish tezligi olingan;
6. Bog'liqsiz tasodifiy vektorlar yig'indisining taqsimoti ehtimolligi uchun asimptotik baholar olingan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

СИРОЖИТДИНОВ АБДУЛХАМИД АЛИМОВИЧ

НЕКОТОРЫЕ ПРЕДЕЛЬНЫЕ ТЕОРЕМЫ ДЛЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЙ СУММ НЕЗАВИСИМЫХ СЛУЧАЙНЫХ ВЕЛИЧИН

01.01.05 – Теория вероятностей и математическая статистика

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

ТАШКЕНТ – 2025

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B.2022.4.PhD/FM796.

Диссертация выполнена в Институте Математики имени В.И.Романовкого.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (http://ik-fizmat.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (http://www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Форманов Шакир Касимович** доктор физико-математических наук, академик
Официальные оппоненты:	**Хамдамов Исакжан Мамасалиевич** доктор физико-математических наук, профессор.
	Мамуров Игамназар Нарбаевич кандидат физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	**Наманганский инженерно-строительный институт**

Защита диссертации состоится «15» апреля 2025 года в 14^{00} часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 при Национальном университете Узбекистана имена Мирзо Улугбека. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99878)227-12-24, факс: (+99878) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №45). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99878) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «1» апреля 2025 года.
(протокол рассылки №2 от «1» апреля 2025 года).

А. Садуллаев
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д. ф.-м. н., академик

Р. М. Жураев
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д. ф. ф.-м. н. (PhD)

О.Ш.Шарипов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д. ф.-м. н., профессор

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире в научных и практических исследованиях зачастую многие математические модели выражается суммой большого числа независимых случайных величин. Нет сомнения, что закон распределения суммы будет нормальным, если число слагаемых очень велико и каждый член суммы пренебрежимо мал. Актуальними являются исследования нормальной сходимости распределений сумм независимых случайных величин, поскольку функцию распределения суммы удается выписать явно, она оказывается малопригодной для практических вычислений ввиду того, что ее сложность растет с ростом числа слагаемых. Для таких функций прямые вычисления уже для сумм нескольких десятков слагаемых становятся невозможными, в то время как в практической деятельности часто приходится иметь дело с суммами сотен и тысяч слагаемых. Впервые А.М. Ляпуновым в 1901 г. была установлена оценка скорости сходимости в центральной предельной теореме (ЦПТ), где оценка была представлена в виде числа слагаемых и их первых моментов. Моментные оценки являются наиболее простыми и удобными оценками точности аппроксимации в ЦПТ, но они не лишены некоторых недостатков. Например, в них отсутствует информация о близости исходного распределения и предельного закона. Поэтому в случаях, когда имеется существенно большое число моментов, такие оценки могут быть достаточно грубыми.

Во всем мире проведен и проводится ряд научных исследований относящиеся к определением скорости сходимости в ЦПТ. Следует отметить, что выдающиеся ученые А.Н.Колмогоров и Б.В.Гнеденко, В.В.Петров, В.М.Золотарев посвятили этой теме отдельные главы в своих известных книгах, а В.В. Сенатов, П. Холл, Р.Н. Бхаттачария, Р. Ранга Рао и И.Г. Шевцова написали по ней целые монографии. Существенный прогресс был достигнут в работах В.В. Сазонова и В.В. Сенатова, где рассматривался многомерный случай, а А.В. Булинский и его ученики рассматривали оценки скорости сходимости в ЦПТ для векторных случайных полей. Также важно отметит, что при построении математических моделей порой приходится иметь дело со случайным числом факторов. Предельные теоремы для суммы случайных величин со случайными числами слагаемыми, как нам известно, впервые были изучены в работах Г. Роббинса, Ф. Анскомбе, В. Рихтера и других. В работе Г. Роббинса рассматривалось распределение суммы случайного числа случайных величин в условиях независимости числа слагаемых от самих слагаемых случайных величин. Такую схему случайного суммирования назовем «независимой схемой». В настоящее время имеется большое количество работ относящихся к «независимой схеме».

